

G'ARB TARIXSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR SIYMOSI

*Farg'ona davlat universiteti Tarixshunoslik,
manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi 1 – kurs magistranti
Abdualilova Irodaxon Hayotjon qizi
irodaabdijalilova3@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temurning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi hamda uning Markaziy Osiyo va Yevropa geosiyosiy maydonidagi roli tahlil qilinadi. Muallif Temurning markazlashgan kuchli davlat barpo etish yo'lidagi islohotlari, ilm - fan, madaniyat va me'morchilik rivojiga ko'rsatgan homiyligi hamda "Temur tuzuklari" asarining huquqiy va axloqiy ahamiyatini yoritib beradi. Shuningdek, Temuriylar renessansining jahon madaniyati taraqqiyotidagi o'rni va sarkardaning diplomatik aloqalari xalqaro munosabatlar tarixidagi o'ziga xos bosqich sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar renessansi, jahon sivilizatsiyasi, "Temur tuzuklari", geosiyosat, Markaziy Osiyo, me'morchilik, diplomatiya, markazlashgan davlat.

Аннотация: В данной статье анализируется вклад великого государственного деятеля и полководца Амира Темура в развитие мировой цивилизации, а также его роль на геополитической арене Центральной Азии и Европы. Автор освещает реформы Темура по созданию мощного централизованного государства, его покровительство развитию науки, культуры и архитектуры, а также правовое и этическое значение трактата "Уложения Темура". Кроме того, оценивается место Темуридского Ренессанса в прогрессе мировой культуры и дипломатические связи полководца как особый этап в истории международных отношений.

Ключевые слова: Амир Темура, Темуридский Ренессанс, мировая цивилизация, "Уложения Темура", геополитика, Центральная Азия, архитектура, дипломатия, централизованное государство.

Abstract: This article analyzes the contribution of the great statesman and commander Amir Temur to the development of world civilization, as well as his role in the geopolitical arena of Central Asia and Europe. The author highlights Temur's reforms in establishing a powerful centralized state, his patronage of the development of science, culture, and architecture, and the legal and ethical significance of his work "The Institutes of Temur". Furthermore, the role of the Timurid Renaissance in the progress of world culture and the commander's diplomatic relations are evaluated as a unique stage in the history of international relations.

Keywords: Amir Temur, Timurid Renaissance, world civilization, “The Institutes of Temur”, geopolitics, Central Asia, architecture, diplomacy, centralized state.

KIRISH: Insoniyat tarixi taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko’rsatgan buyuk shaxslar orasida Sohibqiron Amir Temur siymosi alohida o’rin tutadi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida markazlashgan kuchli davlat barpo etgan ushbu daho nafaqat o’z davrining siyosiy xaritasini shakllantirdi, balki jahon sivilizatsiyasining keyingi rivojlanish yo’nalishlarini ham belgilab berdi.

Amir Temurning jahon tarixidagi o’rni faqatgina uning harbiy g’alabalari va zabt etgan keng hududlari bilan emas, balki u asos solgan adolatli boshqaruv tizimi, madaniy yuksalish va xalqaro diplomatiyadagi faolligi bilan izohlanadi. U tarqoq va o’zaro nizo ichida bo’lgan viloyatlarni yagona bayroq ostida birlashtirib, mamlakatda barqarorlik va qonun ustuvorligini ta’minladi. Sohibqironning “Kuch – adolatdadir” degan shiori uning butun davlatchilik siyosatining o’zagini tashkil etib, “Temur tuzuklari” asari orqali Sharq va G’arb xalqlari uchun boshqaruvning yuksak namunasiga aylandi.

Shu bilan birga, Amir Temurning Yevropa monarxlari, jumladan, Fransiya, Angliya va Kastiliya qirollari bilan olib borgan diplomatik aloqalari xalqaro munosabatlar tarixida yangi sahifa ochdi. Uning Boyazid Yildirim ustidan qozongan g’alabasi Yevropa xalqlarini katta xavfdan saqlab qolgani g’arb tarixshunosligida ham munosib e’tirof etiladi. Bugungi kunda Amir Temur merosini o’rganish nafaqat milliy o’zlikni anglash, balki insoniyatning umumiy madaniy va siyosiy tarixini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Temur va uning saroyiga oid xotiralar” (Souvenirs de Timour et de son palais) asari 1402 – 1403 - yillarda Rim papasi va Fransiya qiroli nomidan Amir Temur huzuriga yuborilgan elchi va arxiyepiskopga tegishlidir. 23 bobdan iborat bo’lgan bu asarda Amir Temurning taxtga chiqqan vaqtidan boshlab 1402 – yil avgust oyigacha bo’lgan voqealar haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan[1].

“Skifiyalik Tamerlanning ulug’vorligi” (Magnus Tamerlanes) asari italiyalik olim Pyetro Perondino tomonidan 1553 - yilda Florensiyada nashr etilgan. Bu Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti edi. Perondino o’z asarida Amir Temurni nafaqat buyuk fohit, balki o’z davrining eng qudratli va salobatli hukmdori sifatida tasvirlaydi. Muallif Sohibqironning tashqi ko’rinishi, xarakteri va davlat boshqaruvidagi qat’iyatini bayon qilarkan, uning Yevropa tarixidagi o’rnini alohida e’tirof etgan[2].

Bundan tashqari, ispan elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning “Samarqandga – Temur saroyiga sayohat kundaligi” (1403–1406) asari Perondino va Grinlo

ma'lumotlarini boyitib, Temuriylar poytaxtining ijtimoiy - iqtisodiy hayoti, me'morchiligi va saroy etiketini tahlil qilishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi.

Nemis olimi M.Dagen Hort 1913 – yilda Yevropa sharqshunoslarining Amir Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan asarlar ro'yxati – bibliografiyasini chop ettirdi[3].

2006 - yilda, Parijda Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish bo'yicha assotsiatsiyaning asoschisi va prezidenti, professor Lyus'en Keren qalamiga mansub "Samarqandga, Temur davrida sayohat" kitob albomining uchinchi nashri bosmadan chiqadi. Bu kitob YUNESKOning "Ipak yo'li - muloqot yo'li" dasturiga muvofiq yozilgan va nashrga tayyorlangan. Kitobning uchinchi nashri uning kitobxonlar orasida keng ommalashganidan dalolat beradi va u Yevropa kitobxonlarida ulug' bobokalonimiz, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur shaxsiyatiga katta qiziqish uyg'otishi shubhasiz[4].

G'arb tarixshunosligi bilan bir qatorda, Amir Temur shaxsi va uning davlat boshqaruvini o'rganishda bevosita o'sha davr guvohlari bo'lgan sharq mualliflarining asarlari poydevor vazifasini o'taydi. Xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Sohibqiron hayoti va harbiy yurishlarining eng mukammal solnomasi hisoblanib, unda davlatning siyosiy tuzilishi va strategik g'alabalari batafsil bayon etilgan eng asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Temuriylar tarixiga tegishli manbalar jahon miqyosida turli tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shu o'rinda temurshunoslik rivojiga tamal toshini qo'ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo'minov, R.Mukminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel, A.O'rinboyev, B.Ahmedov, D. Yusupova, O'.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo'riyev kabi qator fidoiy olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qildi. Zero, aynan ularning mustaqillik yillarida chop etilgan yirik nashrlarda Amir Temur hayoti va faoliyati tarixini mukammal yoritishdagi xizmatlarini e'tirof etish zarur. Birlamchi yozma manbalar, ya'ni qo'lyozma kitoblar maxsus yo'nalishlarda yoritilgan[5].

Ushbu ishni yozishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiylik metodi orqali Amir Temur faoliyati o'z davrining ijtimoiy - siyosiy sharoitidan kelib chiqib tahlil qilindi. Qiyosiy - mantiqiy tahlil metodi yordamida Sharq va G'arb manbalaridagi ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, obyektiv xulosalar chiqarishga turtki berdi. Bunday usullardan foydalanish tadqiqot jarayonida samarali natijaga erishish yo'liga eltuvchi belgilardan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqotlar va o'rta asrlar manbalarining qiyosiy tahlili natijasida Amir Temurning jahon tarixidagi o'rni shunchaki mintaqaviy hukmdor doirasidan chiqib, global sivilizatsiya miqyosidagi hodisa ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sohibqiron tomonidan asos solingan markazlashgan

davlat tizimi nafaqat Movarounnahr, balki butun Yevroosiyo qit'asidagi siyosiy barqarorlikni ta'minlagan muhim omil bo'lgan.

Ayniqsa, Yevropa manbalari, jumladan, Grinlo va Pyetro Perondino asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, Temurning Boyazid ustidan qozongan g'alabasi G'arbiy Yevropa davlatlari uchun mudofaa va siyosiy barqarorlik imkoniyatini yaratgan. Bu esa Temurning jahon geosiyosatidagi muvozanatni saqlovchi shaxs sifatidagi mavqeini oshishiga sabab bo'lgan.

Muhokama jarayonida aniqlandiki, Amir Temur shaxsi atrofidagi turli qarashlar – uni bir tomondan shafqatsiz fotih, ikkinchi tomondan esa ilm - fan va madaniyat homiysi sifatida ta'riflanishiga olib kelgan. Bunga asosan mualliflarning siyosiy qarashlari va mafkuraviy yondashuvlari sabab bo'lgan. Biroq, "Temur tuzuklari"ning huquqiy tahlili shuni isbotlaydiki, uning boshqaruv falsafasi quruq kuchga emas, balki qat'iy qonunchilik va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan. Muhokama qilinayotgan manbalardagi "Kuch – adolatdadir" tamoyili o'sha davr uchun inqilobiy yangilik bo'lib, u nafaqat davlatni boshqarishda, balki xalqaro munosabatlarda ham o'z aksini topgan[6].

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari Temuriylar renessansi tushunchasining naqadar asosli ekanligini yana bir bor namoyon etdi. Samarqand va Shahrisabzda bunyod etilgan me'moriy obidalar, ilm - fan va san'atga bo'lgan yuksak e'tibor natijasida Markaziy Osiyo dunyoning madaniyat markaziga aylandi. Bu madaniy yuksalish keyinchalik Hindistonda Boburiylar, Eronda esa Safaviylar madaniyatiga poydevor vazifasini o'tagan desak mubolag'a bo'lmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O'zbekiston davlatchiligining yuksalishida muhim o'rin tutgan shahslardan biridir. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qatorda "Sohibi jahon" hamda "Sohibi adl" - "Adolat sohibi" nomlari bilan ulug'lanishi tarixiy manbalar va tarixshunoslarning tadqiqot ishlarida namoyon bo'lishi bejizga emas. Bugun tarixiy bilimlarning bosqichlarini o'rganar ekanmiz, Mo'gullarning 150 yildan ortiq hukmronligidan so'ng Amir Temur barcha sohalarning rivojlanishida asosiy sababchilardan biri bo'lgan shaxs ekanligining guvohi bo'lamiz.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

- [1]. Ahmedov B. Amir Temur: Tarixiy roman. – Toshkent: O'zbekiston, 1995. – 350 b.
- [2]. Hukhem, Hilda. Yetti iqlim sultoni: Amir Temur hayoti / Ingliz tilidan tarjima. – Toshkent: Adolat, 1999. – 320 b.
- [3]. Keren, Lyusen. Amir Temur saltanati / Fransuz tilidan B. Ermatov tarjimasini. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 247 b.

[4]. Xolbekov M. Sohibqiron Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari // Jahon adabiyoti. – 2006. – № 1 (104). – B. 131–133.

[5]. Гиббон, Э. История упадка и разрушения Римской империи / Э. Гиббон ; пер. с англ. В. Н. Неведомского. – М. : Изд. К. Т. Солдатенкова, 1983. – Ч. VII.

[6]. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекистана : [каталог] : в 11 т. / Академия наук УзССР, Институт востоковедения им. Абу Райхана Беруни ; под ред. А. А. Семенова. – Ташкент : Фан, 1952–1987. – Т. 1–11.

